

BADIIY MATNDA QO‘LLANGAN PRETSEDENT NOMLARNING ASSOTSIATIV XUSUSIYATLARI

Feruzaxon KARIMOVA*

Annotatsiya: Zamonaviy tilshunoslikda badiiy matnda qo‘llangan pretsedent birliklarning assotsiativ tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganilishi muallif va o‘quvchi muloqot jarayonidagi assotsiativ tafakkurning o‘ziga xos jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Badiiy matnni bu tarzda tadqiq etish orqali matn semantikasi fonida ko‘zda tutilayotgan yashirin mazmunning assotsiativ holda idrok etilishi, pretsedent birliklarning matn mazmunining serqatlam bo‘lishini ta‘minlashdagi o‘rni yoritishda muhim ahamiyatga ega. Maqolada pretsedent birliklar so‘z, jumla, matn holida tahlilga tortilgan. Matnda qo‘llangan pretsedent nomlarning assotsiativ xususiyatlari muallif va kitobxon olamining umuminsoniy, milliy, diniy, hissiy, aqliy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini aks ettirishda muhim vosita hisoblanadi. Pretsedent birliklar o‘quvchini asar muallifi aytmoqchi bo‘lgan yashirin fikrlar, g‘oyalar, ma‘lumotlarga yo‘naltirib, uning xotirasida assotsiativ tarzda matn shaklidagi javob-reaksiyalarini shakllantiradi.

Kalit So‘Zlar: *Assotsiativ Tilshunoslik, Pretsedent Birliklar, Badiiy Matn.*

Associative Characteristics of Precedent Names Used in Literary Text

Abstract: In modern linguistics, the study of precedent units used in literary texts from the point of view of associative linguistics serves to identify specific aspects of associative thinking in the process of communication between the author and the reader. When studying a literary text in this way, the associative perception of hidden content against the background of the semantics of the text was considered important for clarifying the role of precedent units in ensuring the richness of the text’s content. The article analyzes precedent units in the form of words, sentences, and texts. The associative properties of precedent names used in the text are an important tool for reflecting the universal, national, religious, emotional, intellectual, and socio-political views of the author and the reader. Precedent units direct the reader to the hidden thoughts, ideas, and information that the author of the work wants to convey and form associative responses and reactions in the form of text in his memory.

Key Words: *Associative Linguistics, Precedent Units, Literary Text.*

Kirish

Badiiy matnda qo‘llangan pretsedent birliklarning assotsiativ tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganilishi muallif va o‘quvchi muloqot jarayonidagi assotsiativ tafakkurning o‘ziga xos jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Badiiy matnni bu tarzda tadqiq etish orqali matn semantikasi fonida ko‘zda tutilayotgan yashirin mazmunning assotsiativ holda idrok etilishi, pretsedent birliklarning matn mazmunining serqatlam bo‘lishini ta‘minlashdagi o‘rni yoritishda muhim hisoblandi. Mazkur sohaning o‘rganilishida rus tilshunoslari Y.Karaulov, V.Krasnix, D.Gudkov, I.Zaxarenko, D.Bagayeva, S.Bannikova, E.Naximova, V.Maslova kabi olimlarning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega (Xudayberganova, 2013: 156). Bugungi kunda ushbu lisoniy birliklar o‘zbek tilshunoslari ishlarida ham tadqiqot obyektiga aylandi. Mavzu doirasi assotsiativ tilshunoslik, pragmalingsvistika, lingvomadaniyatshunoslik, lingvopoetika kabi yo‘nalishlarning chorrahasida tadqiq etilmoqda. Pretsedent birliklar mavzusi D.Xudayberganova (pretsedent nomlar), D.Lutfullayeva (pretsedent birliklar), M.Hakimov (allyuziyalar), M.Yo‘ldoshev (intertekstuallik) ishlarida ko‘zga tashlanadi. Keyingi yillarda esa bu mavzuga bag‘ishlangan yangi tadqiqotlar yosh tilshunolar tomonidan davom ettirilmoqda.

Lingvistik lug‘atlarda mazkur birlikka quyidagicha ta‘rif berilgan: “Pretsedent nomlar mashhur matnlar yoki vaziyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan nomlar, shuningdek, muayyan sifatlarning namunaviy yig‘indisiga ishora qiluvchi ramziy nomlar”dir (Xudayberganova, 2024: 71). Pretsedent birliklar ibora, jumla, matn tarzida ham uchrashi mumkin. Matnga xos belgilari haqida Y.Karaulov shunday izoh keltiradi: “Birdan ortiq shaxsga tegishli bo‘lgan, ularning bilish va hissiy munosabatlarida u yoki bu shaxs uchun ahamiyatli bo‘lgan, ya‘ni mazkur shaxs bilan aloqador odamlarga juda yaxshi tanish bo‘lgan va, nihoyat, til egalari diskursida qayta-qayta murojaat qilinadigan matnlar” pretsedent matnlardir” (Xudayberganova,

* PhD, O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, e-pochta: sayfuddinovna26@mail.ru

2015: 158). Biz quyida ana shunday mantlarga hamda jumlalarga murojaat qilish orqali badiiy matnda qo‘llangan pretsedent birliklarning assotsiativ xususiyatlarini tadqiq etishga harakat qilamiz.

I.Sultonning “Alisher Navoiy” romaniga X.Sulton tomonidan yozilgan “Maktub” so‘ngso‘zida quyidagi jummalarni uchratamiz: “*Garchi barchamiz Isajon Sultonni zamonamizning dilbar va peshqadam yozuvchilaridan biri sifatida yakdillik bilan e’tirof etsak-da, do‘stimiz tavakkal qulochini keng ochib, g‘oyat qiyin, aytish mumkinki, qaltis ishga, ya‘ni ulug‘lar “panjasiga panja” urib qo‘ymadimikan?*” (Sulton, 2021: 446).

Muallifning ushbu matn parchasida ulug‘lar “panjasiga panja” urib qo‘ymadimikan jumlasini pretsedent jumla hisoblanadi. Mazkur jumla matnning serqatlamligini ta‘minlagan holda, muallif tomonidan matnga mohirona kiritilgan. Muallifning maqsadi allyuziya ishora birligi orqali o‘z fikrlarini ta‘sirli va jozibali ifoda etishni ta‘minlashdir. Matndagi allyuziyalar manbasi pragmatik mazmunni ham keltirib chiqargan. Natijada, ishora jumlasini kitobxon assotsiativ tafakkurida hosil bo‘ladigan tushunchalar bilan bog‘liq quyidagi assotsiatsiyalarni yodga tushirilishiga xizmat qilgan:

1) A.Navoiyning “*Emas oson bu maydon ichra turmoq, Nizomiy panjasiga panja urmoq*” bayti bilan bog‘liq assotsiatsiyalarni;

2) xamsachilik an‘anasini yodga tushirish bilan bog‘liq assotsiatsiyalarni, ya‘ni X.Dehlaviy, N.Ganjaviy, A.Jomiy, A.Navoiylarning “Xamsa” yozganligi bilan bog‘liq assotsiatsiyalarni;

3) Navoiy haqida asar yozgan mualliflar – Oybek, Mirkarim Osim kabi so‘z ustalarining asarlari haqidagi assotsiatsiyalarni.

Muallif bu o‘rinda to‘g‘ridan to‘g‘ri I.Sulton Oybek va M.Osim asarlaridan farqli original asar yaratata oldimi, degan savolni qo‘ymaydi (bu holat badiiyatda estetik zavqni uyg‘otmaydi, o‘quvchining hafsalasini pir qiladi), balki pragmatistik jihatdan pretsedent jumla orqali – ushbu mualliflar va ularning asariga ishora qilish orqali fikrini bayon etadi. Bu jumla ta‘sirchanligini oshirib, kitobxon qiziqishini kuchaytiradi. Natijada jumla har jihatdan – mazmuniy, uslubiy, pragmatik jihatdan o‘ziga xos vazifa yuklangan holda matnga kiritilgan.

Matnning keyingi qismidan muallif fikrlarining mazmuni ushbu pretsedent birlikning tahliliga mos ekanligini ko‘ramiz: “*Xayriyat, qo‘lyozmani o‘qiy boshlashim bilan bu hadik va xavotirlar tumanday tarqab ketdi. Va buyuk mutafakkir shoirimiz haqida yangi, muhtasham va original roman yaratilganiga amn bo‘la bordim*” (Sulton, 2021: 446).

Bunday matn turiga nisbatan M.Yo‘ldoshev intertekstuallik nuqtayi nazaridan yondashgan. Jumladan, bu haqida shunday yozadi; “Muayyan badiiy matn tarkibida o‘zga matnlarga daxldor unsurlarning mavjudligi shu matnning intertekstualligidir” (Yuldashev, 2009: 126-150).

Intertekstuallikda, shuningdek, “biror matn tarkibida boshqa matn yoki uning unsurlarining ochiq yoki yashirin tarzda mavjud bo‘lishi” ni (Xudayberganova, 2024: 32) nazarda tutadigan bo‘lsak, yuqoridagi matnda ham oshkora, ham yashirin unsur berilganini ko‘ramiz.

Quyida yana bir matnni intertekstuallik bilan bog‘liq holda tahlilga tortmoqchimiz. I.Sultonning “Xazinabon” hikoyasi matnidan olingan parcha:

Uni qattiq malomat qilib o‘tib ketdim. Miskinning ko‘zlari yoshlanganini, ezilib tuproqqa o‘tirib qolganini, bolakay esa boshini egib ma‘yuslashganini ham ko‘rdim. “Hoy inson, yoningdagi yosh bolangdan uyalmaysanmi, qay yuz bilan uyalmasdan sadaqa so‘raysan?”

– *Dilimni vayron qilmang, dedi miskin. – Har Musoga bir Xizr deganlarini eshitmaganmidingiz, bolam?* (Sulton, 2017: 259).

Matnda keltirilgan Muso, Xizr pretsedent nomlari orqali o‘quvchi xotirasida assotsiativ tarzda tarzda muqaddas “Qur‘oni Karim”da keltirilgan Musoning Xizr bilan uchrashuvi

haqidagi voqea yodga tushadi. Ishora qilingan voqea matni shunday: *Muso a.s. ikkita dengiz qo'shilgan joyda Xizr a.s. bilan ko'rishadi va Xizr a.s. dan ilm o'rgatishini so'raydi va Xizr a.s. rozi bo'ladi va bu uchun bir shart qo'yadi. Muso a.s. Xizr a.s. bilan yo'ldosh bo'lishligi uchun sabr qilib, hech bir ko'rgan ishida savol bermasligi kerak bo'ladi. Muso a.s. yo'lda duch kelgan voqealar sabab bergan va'dasini unutib, savol so'raydi. Xizr a. s. shart buzilganini va endi ajralishishlarini aytadi. Ya'ni Muso a.s. sabr qilmaganligini aytadi* (Qur'oni Karim, 2021: 293-305). Qissadan xulosa: Hech kim o'zini olimman demasin, undan-da olim, ilimli odamlar bor. Hech qachon zohiriga qarab hukm chiqarmaslik kerak, chunki har ko'ringan narsa siz o'ylaganingizdek emas, hayotda o'zingiz bilmasdan, shoshib xulosa chiqarmang, degan hikmat yashiringan.

Matn shaklidagi bu javob reaksiyasi pretsedent nomlar orqali o'quvchi assotsiativ tafakkurida qayta tiklangan hamda u orqali har ko'ringan holatga qarab xulosa chiqarishga shoshilmaslik kerak, degan mulohazaga ishora qilgan. Matndagi har ikki muloqot qatnashuvchilarining milliy qarashlari, diniy e'tiqodlarida mavjud bo'lgan umumiy bilimlar hisobiga muloqot kommunikativligi ta'minlagan. Bu o'rinda islom olami vakillari xotirasida mavjud bo'lgan *Xizr – donishmandlik timsoli* assotsiati matnning to'laqonli tushunilishida asosiy vosita hisoblangan.

I.Sultonning "Uzuk" hikoyasidan olingan quyidagi matnga e'tibor bering.

Bir kuni juda qadimiy uzuk rivoyatidan xabar topdim.

Sulaymon podshohning bir hikmatli uzugi bo'lgan ekan. U uzukni taqsa, shamol-u qurt-qushlar bo'ysunar, yer osti-yu yer usti xazinalari ochilar ekan.

Yosh bo'lganimda havaslanib o'shanaqa uzukni orzu qilgan bo'lardim. Ammo yoshlik o'tdi. Endi har narsadan ma'ni izlaydigan palladaman-ku?

Aqlim turli tasodifiy voqealarni bir-biriga ulab, bir mantiq nuqtasiga yetaklab ketdi (Sulton, 2017: 360).

Kitobxon ushbu turtki-matn parchasini o'qigach, *Sulaymon* pretsedent nomi ta'sirida u haqdagi ma'lumotlarni yodga tushiradi. Bunda *Sulaymon* nomi quyidagi assotsiatsiyalarni qayta tiklanishiga olib keladi: *Sulaymon-podshoh. Sulaymon – payg'ambar. Sulaymon – shamollar va barcha jonzotlar hukmdori. Sulaymonning sirli uzugi bor. Sulaymon uzugida bitik yozilgan kabi.* Kitobxon assotsiativ tafakkurida bunga o'xshash ma'lumotlar u haqidagi boshqa rivoyatlarning ham yodga tushirilishiga xizmat qiladi. Natijada rivoyat fonida boshqa matn shaklidagi javob-reaksiyasi tiklanadi. Matn shaklidagi javob-reaksiyasi, avvalo, xalq og'zaki ijodida va ko'pchilik ichida mashhur bo'lgan rivoyatlardan biri bo'lgan uzukka yozilgan bitik haqidagi rivoyat bo'lishi mumkin. *Sulaymon* haqidagi rivoyatlarda u ba'zan podshoh, ba'zan payg'ambar tarzida tasvirlanadi. Tiklanayotgan matn mazmuni quyidagicha:

Sulaymonning a.s.ning bir uzugi bo'lib, uzukka: "Bu dunyoda hamma narsa o'tkinchi", deb yozib qo'yilgan edi. Bir kuni g'am-anduhga to'lgan Sulaymon a.s. jahl ustida uni irg'itib yuborganda, dumalab ketayotgan uzuk ichida ham yozuv borligiga ko'zi tushadi, yana borib uzukni oladi va ichidagi yozuvni o'qiydi. Uni ichiga "Bu ham o'tib ketadi", deb yozib qo'yilgan ekan. Sulaymon buni o'qib, yuziga tabassum yugiradi va uzukni yana taqib oladi va umrining oxirigacha bu uzukni yechmaydi (Xurshid Davron Kutubxonasi, 2019).

Bu kabi turtki-matn ortida tiklanishi mumkin bo'lgan shu mavzuga oid yana boshqa matn shaklidagi javob-reaksiyasining variantlari ham bo'lishi mumkin. Buni biz *Sulaymon* ham podshoh, ham payg'ambar sifatida tilga olingan "Qur'oni Karim" ma'lumotlarida keltirilgan hikoyat orqali izohlaymiz. Turtki-matndagi *Sulaymon podshoh* haqidagi ma'lumotlar "Qur'oni Karim" dagi matn ma'lumotlariga asoslangan holda keltirilgan. Xalq orasidagi rivoyat esa ikkilamchi matn hisoblanadi va u mazkur matnning turli variantlarda mavjudligini ko'rsatadi. Demak, pretsedent jumla yoki matnlar faqat bir matn shaklidagi javob-reaksiyasiga emas, ikki yoki undan ortiq matn shaklidagi javob-reaksiyalariga ishora qilishi mumkin.

O‘.Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asarida muhabbat tuyg‘usi haqida quyidagi matnni o‘qiymiz:

Hech shubhasiz, muhabbat juda oliy, juda sirli tuyg‘u. Aks holda Tangri Odam Ato bilan Momo Havoning bu gunohini kechirmas edi. Biroq baribir bu abadiy tushuncha emas. Sezib turibman. Unday bo‘lsa, siz – qalam ahli ishq-muhabbat to‘g‘risida muncha ko‘p yozasizlar, demoqchisiz. Gap shundaki, sevgi Tangri tomonidan odamga ato etilgan ne‘matlardan biri. Insonni harakatlantirib turuvchi omil. Demak, inson qismati haqida yozgan ijodkor bu masalani chetlab o‘tolmaydi. Ulug‘ Xemengueyning gapi bor: “Yozuvchi uchun to‘rtta abadiy mavzu bor: muhabbat, mehnat, urush, o‘lim. Qolgan barcha gaplar shular atrofida aylanadi (Hoshimov, 2018: 176).

Matndagi pretsedent nomlar – *Tangri, Odam Ato, Momo Havo, Xemenguey.*

Pretsedent jumla esa – *“Yozuvchi uchun to‘rtta abadiy mavzu bor: muhabbat, mehnat, urush, o‘lim. Qolgan barcha gaplar shular atrofida aylanadi...”*

Muallif muhabbat haqidagi fikrlarini Odam Ato va Momo Havoning Yer yuziga tushirilishi bilan bog‘liq qadim rivoyat bilan bog‘laydi. *Aks holda Tangri Odam Ato bilan Momo Havoning bu gunohini kechirmas edi* jumlasini kitobxonni bevosita yana “Qur‘oni Karim” surasiga taqiqlangan mevani tanavvul qilish bilan bog‘liq Insoniyat gunohining boshlanishi haqidagi ma‘lumotlarning xotirada tiklanishiga turtki beradi. Mazkur pretsedent nomlar o‘zbek kitobxonni uchungina emas, balki umuman bu mashhur qissadan xabardor boshqa millat til egalari xotirasida ham yuqoridagi kabi assotsiatsiyalarni tiklaydi. Shuning uchun ham bu pretsedent nomlar umumiy xarakterga ega bo‘lib, diniy mazmundan ko‘ra umuminsoniy xarakterdagi mazmunni o‘zida mujassam etgan. Odam Ato va Momo Havo haqidagi rivoyatni “Qur‘oni Karim” da keltirilishidan tashqari butun dunyo adabiyotlarida ko‘chib yurishini hisobga olgan holda aytish mumkinki, matndagi bu nomlar kitobxonning yoshi, millati, kasbi va faoliyat turidan qat‘i nazar, nom ostidagi u bilan bog‘liq ma‘lumotlarni yodga solinishiga xizmat qila oladi. Shu bilan birga muallif turtki-matni mazmuni barcha kitobxonlar tasavvurida o‘z muhabbatlari bilan bog‘liq voqealarning xotiralarida qayta jonlanishiga ham ta‘sir etadi. Bu holat kitobxonning matn o‘qilayotgan vaqtdagi ruhiyatiga turlicha ta‘sir qilishi o‘z “muhabbat hikoyasi” ning g‘amgin yo quvnoq, yoqimli yoki yoqimsiz ekanligi bilan bog‘lanadi. Pretsedent nomlarning inson his-tuyg‘ulariga ta‘sir etish orqali o‘quvchi fikrlarini matndan boshqa, matn ortida turgan voqealar haqidagi assotsiatsiyalarga bog‘lashdagi o‘rni O‘tkir Hoshimov tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirilgan.

Ushbu matndagi yana bir pretsident nom va jumlada ham kitobxon tafakkur dunyosi boshqa matn bilan bog‘langanini ko‘ramiz. Ya‘ni *Ulug‘ Xemengueyning gapi bor: “Yozuvchi uchun to‘rtta abadiy mavzu bor: muhabbat, mehnat, urush, o‘lim. Qolgan barcha gaplar shular atrofida aylanadi* jumalari orqali berilgan mazmun o‘quvchi xotirasida mashhur yozuvchining muhabbat, mehnat, urush, o‘lim mavzusida yozilgan asarlarining xotirada tiklanishiga olib keladi. “Chol va dengiz, “Alvido, qurol” kabi asarlarni o‘qigan kitobxon tasavvurida asarlarda berilgan g‘oyaviy mazmun bilan muhabbat, urush mavzusi uyg‘unlashtiriladi. Ushbu matn yangi bilimlar hisobiga o‘quvchi tomonidan mashhur yozuvchi va uning asarlari haqidagi yangi ma‘lumotlarning o‘zlashtirilishiga ham sharoit yaratadi. Bundan shunday mulohaza qilish mumkinki, pretsedent birliklar faqatgina biror shaxs, narsa, matn yoki voqeaga ishora qilibgina qolmay, kitobxonning badiiy, aqliy, hissiy, diniy tafakkuriga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazadigan vosita sifatida badiiy matn tarkibida alohida yuk tashiydi. Demak, pretsedent birliklar ma‘lumotlarni to‘ldirish va yangi bilim berish vazifasini ham bajarishi mumkin.

Adibning yana bir kichik matniga e‘tibor qaratsak.

Qaysi yurtda qonunlar hokimlar ustidan hukmron bo‘lsa, hokimlar esa qonunga qul bo‘lsa, o‘sha yerga Xudoning ne‘matlari yog‘ilib turadi!”

Bu gapni Aflotun aytgan. “Qonunlar” degan kitobida. Bundan ikki ming to‘rt yuz yil avval!

Odamlar bironvga qoyil qolsa, "Aflotun bo'pket-ey!" deb xitob qilishi bejiz emas-ov... (Hoshimov, 2018: 76).

Matnda *Aflotun*, "*Qonunlar*" pretsedent nomlari hamda *Qaysi yurtida qonunlar hokimlar ustidan hukmron bo'lsa, hokimlar esa qonunga qul bo'lsa, o'sha yerga Xudoning ne'matlari yog'ilib turadi* pretsedent jumlasini keltirilgan. Ular muallif tomonidan turtki-matnga o'quvchi tafakkur olamiga yangi bilim berish maqsadida olib kirilgan. Chunki *Aflotun* nomi orqali u bilan bog'langan fikr hamda fikr keltirilgan asar nomi barcha kitobxon uchun birdek tanish emas. Ko'pchilik kitobxonlar xotirasida *Aflotun – faylasuf. U qadimgi yunonistonlik bo'lgan. U Suqrotning shogirdi bo'lgan. U Platon nomi bilan tarixda iz qoldirgan* kabi assotsiatsiyalar mavjud. Mavjud assotsiatsiyalar ichidan *Aflotun – faylasuf* assotsiati bilan bevosita bog'lanadigan o'zbek tili so'zlashuv uslubida stereotip shaklga kelib qolgan *Aflotun bo'pket-ey* jumlasini universal pretsedent nomning milliy pretsedent jumlaning hosil bo'lishi bilan bog'liq hodisa ekanligini aytib o'tish joiz. Badiiy matn tarkibida universal pretsedent nomning milliy xarakter kasb etishi va u matnda qo'shimcha uslubiy bo'yoqqa ega bo'lishi pretsedent nomlarning ko'pchirali xususiyatlarini namoyon etadi. Matn muallifining maqsadi ham *Aflotun* pretsedent nomi vositasida o'zbek millatiga xos bo'lgan dunyoqarash va tafakkur tarzini ko'rsatishdan iborat. Shu bilan birga matnda oshkora ifodalanmagan va yashirin tarzda ishora qilingan *Qonunlar hokimlar ustidan hukmron bo'lishi kerak* degan xulosaviy fikr mavjudki, bu muallifning ijtimoiy-siyosiy qarashlari o'quvchi tafakkur olamiga boshqa odamning, ya'ni mashhur faylasufning fikri sifatida singdirilganini ko'ramiz.

Yana bir misol:

Sherdillar tog'lar-u bog'lar o'lkasi – jonajon Mingtepadan bir umrga ketishdi. Ehtimol, bir umrga deyish no'to'g'ri bo'lar. Ruslar aytishadi-ku: "Hech qachon "hech qachon" deya ko'rma", – deb. Kim biladi, falakning gardishi bir aylanib, kimsan Sherdil Tohirovich yana ona yurtiga – mo'jazgina qishlog'iga qaytib ham qolar? Axir, maqol aytishda o'zbeklar hech qaysi xalqdan qolishmagan: "Ot aylanib, qozig'ini topadi". Lekin kunimiz kelib odam bolasi shunaqangi jahonshumul o'zgarishlar davriga kirdiki, kishi hayoti davomida bitta emas, butun boshli maqol-u hikmatlar shodasini chippakka chiqarib yashashi mumkin (Hamdam, 2011: 51).

Matnda keltirilgan pretsedent nom – *Mingtepa* Andijon viloyatining Marhamat tumanida joylashgan bir qishloq nomi bo'lib, asar bosh qahramoni Sherdil tig'ilib o'sgan ona-yurt sifatida matnda alohida urg'u ostida berilganini ko'ramiz. Bu o'rinda muallif mazkur pretsedent nom ostida bu qishloqda hurmatli va taniqli odamlar yashaganiga *Sherdillar tog'lar-u bog'lar o'lkasi – jonajon Mingtepadan bir umrga ketishdi* jumlasini orqali ishora etmoqda.

Matnda rus va o'zbek millati tafakkur tarziga xos bo'lgan stereotip jumlar – maqollar keltirilgan. Yozuvchi ularning o'zbek millatiga mansub bo'lgan kishi assotsiativ xotirasida mavjud ekanligiga ishora qilmoqda, shu bilan birga muallif *Maqol aytishda o'zbeklar hech qaysi xalqdan qolishmagan, Ot aylanib, qozig'ini topadi* milliy pretsedent jumlasini orqali qahramonining ona-yurtiga qaytish ehtimoli haqida ham mulohaza qilmoqda, keyingi jumladagi *chippakka chiqarib turg'un* birikmasi mazmuni orqali avvalgi fikrlarga qarama-qarshi mulohazani berish bilan o'quvchi tafakkur olamiga hech narsa muqim va abadiy qimmatga ega emasligini, shu jumladan, maqol va turg'un birikmalardagi mazmun ham vaqt o'tishi bilan o'z ohorini yo'qotishi mumkinligi haqidagi xabar mazmunini bermiqchi bo'ladi. Bu o'rinda muallif badiiy niyati va maqsadini ro'yobga chiqarishda pretsedent turg'un birikmalarning o'rni alohida ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlamq joiz.

Xulosa

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, badiiy matnda qo'llangan pretsedent nomlarning assotsiativ xususiyatlari muallif va kitobxon olamining umuminsoniy, milliy, diniy, hissiy, aqliy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini aks ettirishda muhim vosita hisoblanadi. Pretsedent birliklar o'quvchini asar muallifi aytmqchi bo'lgan yashirin fikrlar, g'oyalar, ma'lumotlarga

yoʻnaltirib, uning xotirasida assotsiativ tarzda matn shaklidagi javob-reaksiyalarini shakllantiradi. Ushbu matn shaklidagi javob-reaksiyalari mazmuni bilan toʻldirilgan turtki-matn oʻquvchining badiiy asar vositasida yuzaga kelgan estetik zavqini yanada oshirishi bilan birga uning intellektual dunyosini boyitishga ham xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

- Hamdam, Ulugʻbek (2021), *Sabo va Samandar*, Toshkent: Oʻzbekiston.
- Hoshimov, Oʻtkir (2018), *Daftar hoshiyasidagi bitiklar*, Toshkent: Yangi asr avlodi.
- Qurʻoni Karim (2021), *“Kahf” surasi*, Tarjima va tafsir muallifi: Shayx Abdulaziz Mansur, Toshkent: Sano-standart, s. 293-305.
- Sulton, Isajon (2017), *Asarlar, Hikoyalar*, 1-jild, Toshkent.
- Sulton, Isajon (2021), *Alisher Navoiy*, Roman, Toshkent: Adabiyot, s. 505-510.
- Xudayberganova, Durdona (2024), *Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati*, Toshkent: Bookmany print.
- Xurshid Davron Kutubxonasi (2019), “Hazrati Sulaymon, Oʻgitlar”, Erişim: 28.03.2025, <https://kh-davron.uz/kutubxona/qoshimcha/rivoyatlar/har-kunning-bir-hikmati-bor-hazrati-sulaymon-ogitlar.html>
- Yuldashev, Maʼruf (2009), *Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi*, Filol.fan. d-ri....diss., Toshkent, s. 126-150.
- Xudayberganova, Durdona (2013), *Oʻzbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini*, Filol.fan. d-ri diss., Toshkent.